



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№10
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 612 sahifa,
3-oktyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayeva X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda

Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Use of Innovative Pedagogical Technologies in the Development of Critical Thinking	16
<i>Gulnar Atakhanova Orinbaevna</i>	
Current Aspects of Designing and Implementing Extracurricular Educational Activities at the Primary General Education Level.....	20
<i>Amankosova Dinara Gabitovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachi shaxsiyati va kasbiy mahorati shakllanishining nazariy asoslari....	24
<i>Axmadaliyeva Moxlaroy To'xtapolatovna</i>	
Pedagogical Model and Stages of Teaching Subjects Through a Project-Based Approach	28
<i>Bannayev Qosimjon</i>	
Lotin tili va zamonaviy tibbiy terminologiya: tarixi, vazifasi va amaliy ahamiyati	31
<i>Eshmurodova Shirin Oybekovna</i>	
Motor alaliyaning nonutqiy simptomatikasi	34
<i>Isayeva Mushtariy Alisher qizi</i>	
Talabalar etnomadaniy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillari	38
<i>Isomiddinov Asliddin Baxriddin o'g'li</i>	
Texnologiya darslarida o'quvchilarning texnik savodxonligini robototexnika elementlari asosida rivojlantirish.....	41
<i>Jabborova Umida</i>	
Fizika fanini mutaxassislik fanlari integratsiyasi asosida o'qitishda bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	45
<i>Xayrullayev Asliddin Isatullayevich</i>	
Talaba tomonidan mutaxassislik tilini o'zlashtirishda monologik nutqni o'rgatishning samarali usullari masalasi haqida.....	51
<i>Karimov N. M.</i>	
Zamonaviy pedagog kadrlar tayyorlashda kasbiy motiv va motivatsiyaning o'rni	54
<i>Melikova Elnora Shuxratovna</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda pragmatik kompetensiyaning roli.....	58
<i>Mustafayeva Nilufar Ulashovna</i>	
O'quvchilarda iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari	62
<i>Nishonova Dilafuz</i>	
Computer-Based Formative Assessment: Advantages and Challenges in Teaching English to High School Students	66
<i>Obidjonova Shokhista Bakhtiyorovna</i>	
Metata'lim texnologiyalari asosida bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlash tizimini takomillashtirish.....	70
<i>O'rolboyeva Durdona Sayfiddin qizi</i>	
Sun'iy intellekt asosidagi darslarning an'anaviy darslarga nisbatan samaradorligini qiyosiy tahlil qilish.....	73
<i>Rasulev Bobirjan Atxamovich</i>	
Pedagogik faoliyatda pedagogning kasbiy taraqqiyoti motivatsiyasining psixologik xususiyatlari	78
<i>Rustamova Surayyo Shaxobiddinovna</i>	
Innovatsion kompetentlik tushunchasi va uning ilmiy-pedagogik asoslari.....	84
<i>Soliyev Eliyor Ravshan o'g'li</i>	
Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar eshituv idrokini o'yinlar yordamida rivojlantirishning samarali usullari	88
<i>Xalilova Shahnoza</i>	
Zamonaviy ta'limda kommunikativ kompetensiyaning o'rni va ahamiyati.....	92
<i>Yaqubova Nigoraxon Ibrohimjon qizi</i>	
Soliq yuki – mamlakat soliq soliq tizimining asosiy mezonidir	97
<i>Suyunov Otabek Shuxrat o'g'li</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va takomillashtirish yo'llari	101
<i>Ibodova Sarvinoz Sayfilloyevna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida hospital pedagogika fanini o'qitishning dolzarb masalalari va uning uslubiy ta'minoti	106
<i>Inogamova Dilfuza Rahmatullaevna</i>	



Chizma geometriya va kompyuter grafikasi: an'anaviy fan va zamonaviy texnologiyaning uyg'unlashuvi .	111
<i>Raximov A. M., Tairova N. S., Sabirova D. U., Xasanova S. T., Tashpulatov R. X.</i>	
Геймификация в обучении английскому языку на начальном этапе обучения	114
<i>Курбанова Назира Низомиддиновна</i>	
Talabalarda tanqidiy va evristik fikrlashni shakllantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni	117
<i>Adjdiyev Nayrullo Nazrulloevich</i>	
Konstruktiv yondashuv asosida tabiiy fanlar (science)ni o'qitish metodikasi.....	122
<i>Amirullayeva Barno Abdulhaqovna</i>	
Kimyo o'qitishda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishning tajriba-sinov natijalari.....	126
<i>Artiqov Maqsud Bahodirovich, Babanazarova Ayzada Omirbaevna</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni bilingvist sifatida shakllantirishda til o'rganish ko'nikmalari va kompetentsiyalarining rivojlanishi	131
<i>Axmadjonova Gulira'no Muxtorjon qizi</i>	
Talabalarning ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda kooperativ ta'limning metodik yondashuvlari.....	135
<i>Botiraliyeva Gulobar Mahamadismoil qizi</i>	
Talabalarni intellektual faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy sherikchilikning pedagogik va metodik asoslari	139
<i>Dilbarjonov Avazbek Ravshanbek o'g'li</i>	
Teacher-Centered and Child-Centered Methods in Early Childhood Education: Insights From Finland and Uzbekistan	143
<i>Djaparova Gulnoza</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Metodik mahorat kuni" va "Metodik mahorat soati"ni tashkil etish	150
<i>Do'stov Davron Zulhaydarovich</i>	
Theoretical, Methodological, and Practical Factors of Differentiated Education	155
<i>Ergash Shonazarovich Khasanov</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishda kognitiv yondoshuv	160
<i>Gulbahor Xamidova</i>	
Mustaqil ta'lim – mustahkam bilim.....	164
<i>Halima Shukurova Sunatullayevna</i>	
Integrating Google Classroom and Project-Based Learning for Enhanced Synchronous and Asynchronous Education.....	168
<i>Inomkhojaeva Shodiyakhon Abdukodirkhoja qizi</i>	
O'quvchilarning innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishning nazariy asoslari.....	174
<i>Mamadaliyev Axadjon G'aniboyevich</i>	
Hududiy rivojlanishda innovatsion yondashuvlarni strategik boshqaruvga integratsiya qilish yo'llari.....	177
<i>Mo'minov Fazliddin Xusniddin o'g'li</i>	
O'rta yoshdagi ayollarda harakat faoliyatini rivojlantirishda milliy o'yinlarning pedagogik ahamiyati	184
<i>Mustafoev Sherali</i>	
Pedagogical and Psychological Foundations of Developing Higher-Order Thinking Skills in Students.....	188
<i>Nasimova Zarina Isomiddin kizi</i>	
Pedagogik ijodkorlikning kasbiy professionallikda namoyon bo'lish xususiyatlari.....	193
<i>Numonova Dildor Umurzoqovna</i>	
Ko'zi oqiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentsiyasini o'rganishning nazariy asoslari	196
<i>Qarshiboyev Asliddin</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish masalalari.....	200
<i>Qilichova Marxabo Xudayqulovna</i>	
The Transformation of Existential Thought in British Literature: Iris Murdoch's Philosophical Humanism and the Reinterpretation of Freedom	204
<i>Rahmonqulova Zarnigor Nasimjon qizi</i>	
Sportchilarning elektron platformalardan foydalanishning metodik tahlili	209
<i>Saydullayev Zafar Erkinovich</i>	
Adabiy ta'limda estetik tarbiya	216
<i>Sharipov Elmurod Sa'dulla o'g'li</i>	
O'qituvchi-trenerning ko'p qirrali kasbiy-pedagogik funksiyalari	220
<i>Sulaymonov Jaxongir Solijonovich</i>	
Uzluksiz kasbiy rivojlanishda art-pedagogikaning o'qituvchilar hissiy farovonligiga ta'siri	223
<i>Suvanova Kamola Raimqul qizi</i>	

MUNDARIJA	СОДЕРЖАНИЕ	CONTENTS
		<p>Raqamlashtirish muhitida umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirish 226 Xamidova Komila Maxmudovna</p> <p>Oliy ta'limda kvest texnologiyasi yordamida fizika fanining murakkab tushunchalarini o'zlashtirish samaradorligini oshirish metodikasi..... 231 Yo'ichiyev Shaxriyor Xusanovich, O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi</p> <p>Совершенствование профессиональных компетенций будущих инженеров на основе интегративного подхода 235 Умарова Гулчехра Абитовна</p> <p>Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning aqliy qobiliyatining psixologik xususiyatlari 238 Alanazarova Sholpan Artikbaevna, Artiqbaeva Miyassar Jumanazarovna</p> <p>Biologiya ta'limida innovatsion metodlarni joriy etishda ta'lim menejmentining roli..... 241 Allayorova Maloxat Normaxmat qizi</p> <p>Integrating Innovative Technologies for the Enhancement of Speech and Communication Skills Among Learners With Intellectual Disabilities in Uzbekistan: Pedagogical Approaches and Developmental Outcomes 244 Donisheva Gulruy Akhrorkulovna</p> <p>Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilar o'qish savodxonligini rivojlantirishga metodik jihatdan tayyorlash..... 247 Doniyarov Mavlonbek Arabovich</p> <p>Kimyoviy birikmalarda bog'lar sonini hisoblashning yangi matematik usullari..... 252 Ergashev Vahob Ergashevich</p> <p>Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida 257 G'aniyeva Maftuna Abduaziz qizi</p> <p>Pedagogika oliy o'quv yurtlarida steam fanlarini raqamli texnologiyalar asosida o'qitishning metodik asoslari 261 Jamolova Sitora Muzaffar qizi</p> <p>Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini rivojlantirishda didaktik o'yinlar va interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi 264 Mamadiyurov Jamol</p> <p>Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalar mustaqil faoliyatini rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar..... 268 Mamayusupova Nafisa Abdulatifovna</p> <p>Para yengil atletikachilarda nayza uloqtirish texnikasini takomillashtirish uslubiyati 271 Qiyomova Shohsanam Yarash qizi</p> <p>Difficulties in Enhancing Communicativeness of Pre-Service English Teachers 275 Kurbonova Maftuna Fakhriddinovna, Mirzayeva Gulshan Azamatovna</p> <p>Principles of Teaching Basic Foreign Language Skills (EFL) 278 Samandarova Gulsara Ismatilloevna</p> <p>O'quvchilarning innovatsion ta'lim muhitida tayanch kompetensiyalarini shakllantirishning dolzarbligi 282 Toshpulatova Farida Radjabovna</p> <p>Корпоративная культура педагогов и внутренняя стабильность ДОО 286 Буранова Шохноза Абдуразаковна</p> <p>Развивать личностные качества учащихся на уроках географии..... 290 Шадиева Нигора Шариповна</p> <p>Raqamli texnologiyalar yordamida oliy ta'lim sifatini oshirishda innovatsion yondashuvlar 295 Baytileuova Gulnaz Quralbay qizi</p> <p>Yangi avlod pedagoglarini tayyorlash: kompetensiyalar va qadriyatlarining roli..... 298 Ro'ziboyeva Ma'mura Abdunabiyevna</p> <p>Astronomiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvdan foydalanib o'qitishning ta'lim tizimidagi o'rni 301 Barakayeva Sarvinov To'iqunovna</p> <p>Alohida e'tiborga muhtoj bolalar bilan ishlashda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash 305 Usmonov Salohiddin Dushan o'g'li, Namozova Sevinch Asqar qizi</p> <p>Ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashda pedagogik qadriyatlarining ustuvorligi..... 310 Jumayeva Gulnara Tursunpulatovna</p> <p>Talabalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarini maqsadli boshqarishga tayyorlashning nazariy asoslari 314 Mahmudova Zulfiya Xomitovna</p> <p>Pedagogical Methodology Improve Students' Professional Mobility in Acquisition of Specialty..... 319 Khidirova Muhabbat Murodillayevna</p>



Boshlang'ich sinf ona tili darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish	322
<i>Ismoilova Surmaxon Amonovna, Yusupova Mohinur</i>	
Qoraqalpoqlarning dehqonchilik marosimlari	326
<i>Orinboyeva Go'zal Polatovna</i>	
The Complexity of Training Teaching Staff for Work in Public Schools Organized in Medical Stations in Uzbekistan.....	330
<i>Inogamova Dilfuza Rakhmatullaevna</i>	
Boshlang'ich ta'lim texnologiya fanini o'qitishda STEM yondashuvi orqali o'quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.....	335
<i>Jabbarova Zuhra Omondullayevna</i>	
Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarni nutqini shakllantirish metodikasi	338
<i>Z. N. Mamarajabova</i>	
5–7-sinf qizlarida raqamli texnologiyalar ta'sirida tarbiya jarayonining o'ziga xosliklari.....	341
<i>Abdurazoqova Marg'uba Muhammad qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni rivojlantirish diagnostikasi: metodlar va natijalar ..	345
<i>Abduxamidova Dilorom Abdumuminovna</i>	
PISA topshiriqlari asosida o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish	349
<i>Axunjanova Shirmonoy Isroiljonovna</i>	
Bo'lajak surdotarjimonlar uchun faoliyat turlarini tanlashda ko'maklashish	354
<i>Dehqanova Muborakxon G'iyosiddinovna</i>	
Mustaqil ta'limni tashkillashtirishda tarjimadan foydalanish jarayonlari	357
<i>Erkayev Elmira Temirovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishda kreativ va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarining o'rni.....	361
<i>Jumayeva Muxlisa Shokir qizi</i>	
Tasks, Exercises, and Activities in the English Classroom: Differences, Similarities, and Effective Use	366
<i>Qodirov Olim Odilovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish masalalari	372
<i>Safarova Mohichehra Xonzafarovna</i>	
Malaka oshirish tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirish masalalari.....	376
<i>Saidova Dilnoza Maripovna</i>	
O'zbekiston va Yaponiya dzyudo trenerlarining mashg'ulot jarayonlarini qiyosiy tahlili.....	380
<i>Sharipov Xabibullo Abduqahhorovich</i>	
"Kompyuter lingvistikasi"ning rivojlanish tendensiyasi.....	386
<i>Xusanboyeva Muxlisa Ikrojon qizi</i>	
Педагогические технологии стратегического развития взаимного сотрудничества организаций дошкольного образования и родителей.....	392
<i>Тухлиев Муслимбек Шерзод угли</i>	
Oliy ta'limda inklyuziv ta'lim tizimini joriy etish muammolari	397
<i>Dilbar Nurkeldiyeva</i>	
Ixtisoslashtirilgan ta'lim muasasalarida tarbiyaning o'rni.....	401
<i>Laylo Sharopovna Nurmuxamedova</i>	
Intellektida kamchiligi bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvida muloqotning shakllanish xususiyatlari.....	405
<i>Shahnoza Amirsaidova</i>	
Aqli zaif bolalarga ta'lim jarayonida o'yin faoliyatini shakllantirishning ahamiyati.....	409
<i>Ziyodullayeva E'zoza Ne'matjonovna</i>	
Pedagogik texnologiyalar metodlarini tanlash va qo'llashning umumiy mezonlari	412
<i>Abdullayeva Komila Tursunovna</i>	
Didaktik o'yinlar vositasida 2-sinf o'quvchilarida bog'lanishli nutq ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	416
<i>Askarova Gulayim Arislan qizi</i>	
Yugurib kelib uzunlikka sakrovchilarda tezkorlikni samarali va jadal rivojlantirishni ilmiy asoslash.....	420
<i>Avazov Shukrullo Ibatovich, Nuraliyeva O'g'iloy Shomurotovna, Mustafayev Ismoil Nuralio'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda kreativ ta'limning o'ziga xos xususiyatlari va zaruriyati.....	425
<i>Axmedova Mastura Jamoliddinovna</i>	
Imkoniyati cheklangan o'quvchilarda tabiatshunoslik kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari	430
<i>Azizova Dilnora</i>	

Bo'lajak shifokorlarda tibbiy – deontologik kompetensiyalarni shakllanishida tibbiy amaliyotning ahamiyati.....	435
Babadjanova Gulchexra Baxtiyarovna	
Bolaning aqliy rivojlanishini yoritadigan ko'rsatkichlar	440
Bozorboyev Javlon Davlatali o'g'li	
Bo'lajak oligofrenopedagoglarning kasbiy-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish xususiyatlari.....	445
Daminova Maftuna Asqarali qizi	
Kreativ pedagogika fani va mantiqiy fikrlash kompetentligi orasidagi bog'liqlik.....	449
Diyora Egamberdiyeva	
Oilani mustahkamlovchi va ajralishiga olib keluvchi omillar	454
Haqberdiyev Jamoliddin Abdug'affor o'g'li	
Quality Management as a Functional and Attributive Characteristic of Modern Management.....	458
Jabbarbergenova Bibimaryam Amangeldievna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirishda pedagogik va psixologik jarayonlar	464
Mamedova Maxfuza Erkinovna	
Huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishda yuridik ta'limning roli: tahlil va takliflar	470
Mansurova Zilola Akromxonovna	
Pedagogik ta'limda klaster yondashuvi: O'zbekiston va jahon tajribasi	474
Nafisa Tokhirova Dilshod qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari: zamonaviy yondashuvlar va innovatsion imkoniyatlarning integratsiyasi asosida shakllanish jarayoni.....	478
Norqulov Lutfullo Mamarajabovich	
Montessori metodikasi va undagi bolalar sensomotorikasini rivojlantirishga doir tajribalar tahlili	484
Parmonova Laylo Iloxomovna	
Molekulyar fizikani modellashtirish orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish.....	488
Q. U. Tog'ayeva	
Milliy tarbiyada raqamli vositalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	493
Qo'shnazarova Nozima Maxmutjon qizi	
Learning Intercultural Communication Through Social Media: the Approach of Modern Students	498
Raxmonqulova Feruza Akmal qizi	
Aqliy rivojlanishda muammolari bor maktab o'quvchilarida geometrik tushunchalarni shakllantirishning nazariy asoslar.....	502
Shodiyeva Navbaxor Xabibulla qizi	
Logopedning kasbiy faoliyatida deontologiya va kompetentlikning roli va ahamiyati	506
Temurova Gulchexra Xudoqulovna, Isomitdinova Shaxinabonu Zavqiddin qizi	
STEAM ta'limida lego konstrukturlarining o'rni va ahamiyati.....	511
Toshpulatova Farida Radjabovna	
Diagnostikasi va rehabilitatsiya qilishda eshitishda nuqsoni bo'lgan bola va ularning ota-onalari bilan bog'liq muammolar.....	514
Toshpulova Nodira Sultonmurod qizi	
Talabalarni maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar hamkorligi o'rtasidagi o'zaro munosabat shakllari.....	518
Turdiqulova Luiza Zayniddinovna	
O'zbekistonda ESG tamoyillarining ta'limga integratsiyasi: yutuqlar, muammolar va istiqbollari	522
Tursunova Shahzoda Baxromovna	
Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning fazoviy tasavvurlarini shakllantirish	526
Xamidova Muyassar Polsaidovna	
Mustaqil ta'limni tashkil etishning asosiy didaktik prinsiplari.....	530
Yuldashev Shukrullo	
Комплексная методика развития и обучения юных футболистов	536
Ортиков Умиджон Худойбердиевич	
Особенности деятельности детей с нарушением зрения	544
Юсупова Назира	
Integration of Music and Language: Creative Approaches to Teaching English to Music Students	548
Akbarova Moxichexra	



Ingliz tilida yozuv malakalarini takomillashtirishda baholash metodikasi.....	553
<i>Alimardonova Malika Botir qizi</i>	
Yosh kurashchilarni jismoniy va aqliy rivojlantirishda basketbol o'yinining ahamiyati	560
<i>Haqnazarov Qurbon Qo'shayevich</i>	
Voleybol murabbiylarining innovatsion fikrlash qobiliyatini shakllantirish usullari	566
<i>Haqqulov Akbar Abdiraupovich</i>	
Sociolinguistic Competence and Intercultural Communicative Competence: Intertwining Concepts and Practical Implications	571
<i>Kuchmurodova Gulnora Khatamovna</i>	
Ilk qadam davlat dasturida steam ta'lim elementlaridan foydalanish imkoniyati	575
<i>Nazarova Aziza Sohib qizi</i>	
Kasbiy rivojlanish jarayonida rahbar shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	579
<i>Roziqova Nazokat Alisher qizi</i>	
Deontologik yondashuvning nazariy-pedagogik asoslari va uning ta'lim tizimidagi ahamiyati	583
<i>Tashpulatova Nodira Olimjon qizi</i>	
Kasbiy-pedagogik tayyorgarlikda fanlararo integratsiya asosida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarining metodik salohiyatini oshirish yo'llari.....	586
<i>Xashimova Aziza Alisherovna</i>	
Природа и механизм действия биологических иммуностимуляторов на организм животных	590
<i>Койилова Мехринисо Джураевна</i>	
Badiiy asarlar ustida ishlash jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining emotsional intellektini shakllantirish mezonlari	594
<i>Jamalova Kamola Shahobiddinovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish asosida fizika o'qitish metodikasini takomillashtirish	600
<i>Musurmonova Shaxnoza Dilshod qizi</i>	
Futbolchilarda texnik tayyorgarlikni takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari.....	606
<i>Babayev Anvarjon Axmedovich</i>	

BADIIY ASARLAR USTIDA ISHLASH JARAYONIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING EMOTSIONAL INTELLEKTINI SHAKLLANTIRISH MEZONLARI

Jamalova Kamola Shahobiddinovna
NamDU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy asarlar ustida ishlash jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining emotsional intellektini shakllantirish mezonlari, xususan, o'z hissiyotlarini anglash mezoni va uni aniqlash usullari haqida so'z yuritiladi. Tadqiqotda suhbat va intervyular, o'yin va rolli o'yinlar, yozma hamda vizual topshiriqlar orqali o'quvchilarning emotsional holatini o'rganish metodlari tahlil qilinadi. "Sariq devni minib", "Chumoli va bug'doy donasi", "Zardo'z" kabi badiiy asarlar misolida o'quvchilarda emotsional sezgirlikni shakllantirishning samarali yo'llari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: emotsional intellekt, o'z hissiyotlarini anglash mezoni, suhbat, intervyu, o'yin, rolli o'yin, yozma topshiriq, vizual topshiriq, badiiy asar.

Abstract: This article discusses the criteria for developing the emotional intelligence of primary school students in the process of working with literary texts, particularly the criterion of self-awareness of emotions and the methods for its assessment. The study analyzes techniques for identifying students' emotional states through interviews, role-playing games, written and visual assignments. Using literary works such as "Riding the Yellow Giant," "The Ant and the Grain of Wheat," and "The Embroiderer" as examples, the paper highlights effective methods for fostering emotional sensitivity in young learners.

Key words: emotional intelligence, emotional self-awareness criterion, interview, role play, written assignment, visual assignment, literary work.

Аннотация: В данной статье рассматриваются критерии формирования эмоционального интеллекта учащихся начальных классов в процессе работы над художественными произведениями, в частности критерий осознания собственных эмоций и методы его определения. В исследовании анализируются методы изучения эмоционального состояния учащихся через беседы и интервью, игры и ролевые игры, письменные и визуальные задания. На примере таких произведений, как "Жёлтый демон", "Муравей и зерно пшеницы", "Зардўз", показаны эффективные пути развития эмоциональной чувствительности у младших школьников.

Ключевые слова: эмоциональный интеллект, критерий осознания эмоций, беседа, интервью, игра, ролевая игра, письменные задания, визуальные задания, художественное произведение.

KIRISH

Emotsional intellekt – bu shaxsning o'z hissiyotlarini va boshqalarning his-tuyg'ularini anglash, ularni to'g'ri ifoda etish hamda boshqarish qobiliyatidir. Ushbu qobiliyat insonning ijtimoiy muhitda o'zini tutishi, muloqotga kirisha olishi va atrofdagilar bilan samarali hamkorlik o'rnatishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun emotsional intellektning rivojlanishi ayniqsa dolzarbdir. Chunki bu yoshda bolalarda his-tuyg'ularni idora qilish, empatiya (boshqalarning hissiyotlarini tushunish), o'zini ifoda etish, jamoada ishlash va qarama-qarshi holatlarda muvozanatni saqlash ko'nikmalari endigina shakllanadi.

Emotsional intellekti rivojlangan o'quvchi o'qish jarayonida o'z his-tuyg'ularini anglab, ulardan o'z motivatsiyasini kuchaytirish vositasi sifatida foydalanadi. Shu bilan birga, bunday bola sinfdoshlariga nisbatan bag'rikeng, hamjihat va ijobiy munosabatda bo'ladi. Demak, emotsional intellektni shakllantirish nafaqat o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki shaxsning psixologik barqarorligini, ijtimoiy moslashuvchanligini va kelajakdagi muvaffaqiyatini ham ta'minlaydi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

X. Rahimovning “Boshlang‘ich ta‘limda emotsional intellektning rivojlanish xususiyatlari” nomli asarida o‘quv materiallarining emotsional intellektni rivojlantirishdagi ahamiyati muhokama qilinadi. Muallifning fikricha, emotsional intellektni samarali shakllantirish uchun o‘quv materiallari va mashg‘ulotlar bolalarning emotsional hamda ijtimoiy holatlarini e‘tiborga olgan holda tashkil etilishi lozim. Ushbu asarda yosh o‘quvchilarda emotsionalni anglash va ularni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlarning o‘rni va ahamiyati yoritib berilgan.

M. Normatovning “Boshlang‘ich sinflarda emotsional ko‘nikmalarni shakllantirish” nomli tadqiqot ishida esa mashg‘ulotlarning emotsional intellekt rivojlanishiga ta‘siri tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘quv materiallari va mashg‘ulotlarda emotsional hamda ijtimoiy elementlarning integratsiyasi bolalarning his-tuyg‘ularini anglash, ularni ifoda etish va samarali muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, muallif o‘quv jarayonida emotsional qo‘llab-quvvatlashning zarurligini ta‘kidlab, zamonaviy ta‘lim usullari orqali o‘quvchilarning emotsional intellektini rivojlantirish mumkinligini asoslab beradi.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda kuzatish, qiyosiy tahlil, diagnostik (anketa, suhbat, so‘rov), loyihalash, modellashtirish va umumlashtirish metodlaridan tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil foydalanildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining emotsional intellektini rivojlantirish mezonlari, bu baholash, solishtirish yoki qaror qabul qilishda asos sifatida qabul qilinadigan standart yoki talablardir. U nimani nazorat qilish, baholash yoki o‘lchash kerakligini belgilaydi. Masalan, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholashda foydalaniladigan mezonlar ularning qaysi darajada rivojlanganligini aniqlashga yordam beradi.

Shundan kelib chiqib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida emotsional intellektni rivojlantirishni baholash va kuzatishda qo‘llaniladigan mezonlar quyidagi asosiy jihatlariga qarab belgilanadi (1-rasm).



1-rasm: Emotsional intellektning rivojlanganlik darajalarini aniqlash mezonlari

I. O‘z hissiyotlarini anglash

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘z hissiyotlarini anglash darajasi ularning emotsional intellektini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Bu bosqichda bolalarning o‘z hissiyotlarini aniqlash, ularni nomlash, sababini tushunish va boshqalar hissiyotini farqlay olish qobiliyatlari shakllanadi. O‘quvchilar qanday holatda qanday his-tuyg‘ularni boshdan kechirayotganini anglay olishi, o‘z hissiy holatini ifoda eta bilishi ularning emotsional va ijtimoiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega.

O‘z hissiyotlarini anglashni aniqlash quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

1.1. Suhbat va intervyular

Badiiy asarlarni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarning emotsional javoblari, qahramonlarga nisbatan munosabati, empatiya darajasi, axloqiy tahlil ko‘nikmalari va his-tuyg‘ularni ifodalash qobiliyatlari aniqlanadi.

Suhbat va intervyu usullarining pedagogik vazifalari quyidagilardan iborat:

- o‘quvchining ichki dunyosi, hissiy tajribasi va tafakkur jarayonini aniqlash;
- qahramonlarga nisbatan shaxsiy (subyektiv) munosabatini o‘rganish;
- o‘quvchining emotsional lug‘at boyligini baholash;

- empatiya darajasi hamda ijtimoiy-axloqiy baholash ko'nikmasini aniqlash;
- shaxsiy hayotiy tajribasi bilan asar mazmunini bog'lay olish qobiliyatini aniqlash.

Namuna: Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asari asosida o'tkaziladigan suhbat va intervyu metodlari yordamida o'quvchilarning qahramonlarga nisbatan emotsional sezuvchanligi, empatiyasi, axloqiy tahlil qilish qobiliyati hamda voqealarga emotsional baho bera olish darajasi aniqlanadi.

Maqsad: O'quvchilarda badiiy obrazlarga nisbatan emotsional sezuvchanlikni, empatiya hissini, axloqiy tahlil qilish qobiliyatini, voqealarga nisbatan hissiy baho bera olishni hamda o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish.

1-jadval: Suhbat va intervyu metodlarining tavsifi

Mezoni	Suhbat	Intervyu
Ko'lami	Guruhli yoki butun sinf bilan	Individual yoki kichik guruh
Savol turi	Ochiq, erkin savollar, erkin muhokama	Yakkama-yakka, aniq savollar, izchil javob
Pedagogik maqsad	O'quvchilarning umumiy emotsional javoblarini aniqlash	Har bir o'quvchining shaxsiy emotsional darajasini aniqlash

O'qituvchi bajaradigan ishlar

O'quvchilarda emotsional intellektni rivojlantirishga yo'naltirilgan suhbat va intervyu mashg'ulotlari samarali bo'lishi uchun o'qituvchi quyidagi tayyorgarlik ishlarini amalga oshiradi:

- asarning asosiy g'oyasi, syujeti va qahramonlari bo'yicha qisqa eslatma tayyorlaydi;
- emotsional intellekt komponentlariga (emotsiyalarni anglash, empatiya, axloqiy tahlil, o'z hissiyatini ifodalash) oid savollar ishlab chiqadi (quyida namuna keltirilgan);
- suhbat yoki intervyu jarayonida foydalanish uchun baholovchi jadval va yozuv kartochkalarini tayyorlaydi.

Asar bo'yicha suhbat va intervyu metodlarining savollari

1. Emotsiyalarni anglash

- Hoshimjon bu holatda qanday his qilgan deb o'ylaysan?
- Bu sahna seni qanday hislarga soladi?
- Sariq dev paydo bo'lganida o'zingni qanday his qilgan bo'larding?

2. Empatiya

- Hoshimjonning o'rnida bo'lganingda nima qilgan bo'larding?
- Senga ko'ra, Hoshimjonga yordam kerakmi edi? Qanday yordam berish mumkin edi?

3. Axloqiy-emotsional tahlil

- Hoshimjonning qaysi ishi senga yoqdi yoki yoqmadi? Nima uchun?
- Bu asardan qanday saboq olding? Qahramonlarning xatti-harakatidan qanday xulosa chiqarding?

4. O'z emotsiyalarini ifodalash

- Bu asarni o'qigach o'zingni qanday holatda his qilding?
- Asardagi voqealarni boshqacha rivojlantirish imkonining bo'lsa, nimani o'zgartirgan bo'larding?
- Agar Hoshimjon bilan suhbatlashish imkoni bo'lsa, unga nima derding?

Suhbat va intervyu metodlari asosida berilgan savollarga o'quvchilarning javoblari ularning emotsional intellektining shakllanganlik darajasini aniqlash imkonini beradi. Baholash natijalari maxsus 2-jadvalda keltirilgan emotsional intellektni shakllanganlik darajalarini aniqlash mezonlari asosida tahlil qilinadi.

2-jadval: Emotsional intellektni shakllanganlik darajalarini aniqlash mezonlari asosida tahlili

Ko'rsatkich	Past	O'rta	Yuqori
Emotsiyalarni aniqlash	Asos yo'q	Yuza tushuncha	Sabab-oqibat asosli
Empatiya	Yo'q	Qisman	Chuqur hamdardlik
Axloqiy tahlil	Bahosiz	Stereotip fikr	Ijtimoiy-axloqiy asoslangan
Ifoda boyligi	Kam lug'at	Oddiy iboralar	Emotsional, tasviriy tilda bayon



Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asari asosida suhbat va intervyu metodlari Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asari boshlang'ich sinf o'quvchilarining emotsional-intellektual shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu asar asosida tashkil etilgan suhbat va intervyu metodlari orqali o'quvchilarda his-tuyg'ularni anglash, empatiya qilish, axloqiy qarorlarni emotsional asosda tahlil etish, badiiy obrazlarga nisbatan munosabat bildirish kabi ko'nikmalar shakllanadi va chuqurlashadi.

Suhbat va intervyu metodlari o'quvchilarning emotsional-intellektual darajasini aniqlashda ishonchli diagnostik vosita sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, Hoshimjon obrazi orqali bolalarda halollik, vijdon, mas'uliyat, orzu va xatolar ustida fikr yuritish ko'nikmalari rivojlanadi. Bu jarayon emotsional intellektning asosiy komponentlari – emotsiyalarni anglash, boshqarish, o'zini tahlil qilish va boshqalarning hissiyotlarini tushunishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bois, badiiy asarlarni o'qitish jarayonida suhbat va intervyu metodlaridan maqsadli foydalanish nafaqat o'quvchilarning matnini tahlil qilish va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, balki ularning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari va shaxsiy tajribalarini anglashga yo'naltirilgan chuqur tarbiyaviy vositaga aylanadi.

1.2. O'yin va rolli o'yinlar

O'yin va rolli o'yin metodlari badiiy asar qahramonlari hayotiga emotsional kirishish, empatiya qilish, his-tuyg'ularni anglash va boshqarish, shuningdek ijtimoiy-axloqiy munosabatlarni tushunish qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali usul hisoblanadi.

"Chumoli va bug'doy donasi" ertagi asosida rolli o'yin va emotsional intellektni rivojlantirish metodikasi

Ertak mazmuni (qisqacha): Bir chumoli yozda tinmay mehnat qilib, qish uchun bug'doy donalarini yig'adi. Qish kelgach, u yig'gan donni yeydi. Ertak dangasalikka qarshi ogohlantiruvchi, mehnat, sabr, mas'uliyat va oldini ko'ra bilish kabi fazilatlarini targ'ib etadi.

Pedagogik maqsad: O'quvchilarda mehnatga hurmat, sabr-toqat, mas'uliyat kabi ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarini emotsional asosda anglashni shakllantirish; ertak qahramonlariga empatiya qilish, his-tuyg'ularni anglash va ifodalash; shuningdek, o'zini boshqalar o'rniga qo'yish orqali shaxsiy hissiy tajriba orttirish.

Rollar taqsimoti:

- a) Chumoli – mehnatkash, oldini ko'ra oladigan obraz.
- b) Bug'doy donasi – hayotiy resurs va mehnatning ramzi.
- c) Sovuq (abstrakt obraz) – qish faslini ifodalaydi.
- d) Yoz – imkoniyat va mehnat faslini ifodalovchi yordamchi obraz.
- e) Ovozli bayonchi – voqealarni izchil hikoya qilib boradi.

Rolli o'yin ssenariysi: "Qishda don kerak bo'ladi"

- Yoz fasli – chumoli mehnat qilmoqda.
- Qish keladi – sovuq va ochlik.
- Chumoli donni olib chiqadi, bug'doy donasi bilan muloqot qiladi.
- O'quvchilar bug'doy donasining hayotiy ahamiyati haqida munozara yuritadi.

O'yin va rolli o'yin metodlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining emotsional intellektini shakllantirish ko'rsatkichlari

Bu metodlar orqali quyidagi ko'rsatkichlar kuzatiladi:

- O'quvchilarning o'z va boshqalarning his-tuyg'ularini anglash qobiliyati oshadi;
- Empatiya va hamdardlik tuyg'usi rivojlanadi;
- Axloqiy tahlil va ijtimoiy qaror qabul qilish malakalari mustahkamlanadi;
- Hissiy ifoda va o'zini boshqarish ko'nikmalari shakllanadi;
- Jamoada o'z o'rnini his etish va hamkorlik madaniyati rivojlanadi.

3-jadval: O'yin va rolli o'yin metodlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining emotsional intellektini shakllantirish ko'rsatkichlari

Mezon	Ko'rsatkich
Emotsiyalarni tushunish	“Chumoli qishda o'zini qanday his qilgan?”, “Yozda charchoq qanday kechdi?”
Empatiya	“Agar sen chumoli bo'lganingda...”, “Bug'doyning o'rnida bo'lsang, nima derding?”
Axloqiy tahlil	“Nima uchun mehnat qilish kerak?”, “Nega oldindan tayyorgarlik muhim?”
O'zini boshqarish	“Sen o'sha holatda qanday yo'l tutarding?”

“Chumoli va bug'doy donasi” ertagi boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yaqin va tushunarli obrazlar orqali emotsional-intellektual ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu ertak asosida tashkil etilgan rolli o'yinlar orqali o'quvchilar mehnatga hurmat, sabr, mas'uliyat kabi fazilatlarini emotsional va axloqiy jihatdan anglaydilar. Bu jarayonda ular nafaqat ertak mazmunini o'rganadilar, balki obrazlar orqali o'z shaxsiy hayotiy tajribalari bilan bog'lanib, his-tuyg'ularini anglay boshlaydilar. Shuning uchun ertaklar asosida tashkil etilgan o'yinlar va rolli o'yinlar boshlang'ich sinf o'quvchilari emotsional intellektini shakllantirishning samarali pedagogik vositasi hisoblanadi.

1.3. Yozma va vizual topshiriqlar

Masalan, his-tuyg'ularni aks ettiruvchi rasm chizish yoki emotsiyalarni ifodalovchi kartochkalarni tanlash orqali bola o'z holatini qanday tushunishini aniqlash mumkin.

Quyida 4-sinf o'qish savodxonligi darsidan “Zardo'z” ertagi asosida yozma va vizual topshiriqlar orqali o'quvchilarning emotsional intellektini shakllantirish metodikasi keltiriladi.

Ertakning qisqacha mazmuni (eslatma): Bir zardo'z yigit halol mehnati, hunariga sadoqati, sabr-bardoshi va adolatga bo'lgan ishonchi bilan qiyinchiliklarni yengib o'tadi hamda o'z kasbi orqali baxt va hurmatga erishadi. Ertakda hunar qadri, mehnatning samimiyligi, odamiylik va qadrdonlik yuksak e'tirof etiladi.

Ertak asosida ishlab chiqilgan yozma topshiriqlar
1. “Men zardo'z bo'lganimda...”

Vazifa: O'quvchi o'zini zardo'z o'rniga qo'yib, bir kunlik hayotini tasvirlaydi.

Maqsad: Empatiya va refleksiya orqali obraz bilan emotsional aloqa hosil qilish.

Ko'rsatma: “Bugun yana naqqoshlik qilaman. Yulduz naqshini tugatishim kerak. Qiyin, lekin yuragim to'la sabr bilan...”

2. “Zardo'zga maktub”

Vazifa: O'quvchi ertak qahramoniga xat yozadi – uni maqtaydi, savol beradi yoki dardini aytadi.

Maqsad: Qahramonga nisbatan hissiy munosabatni mustahkamlash.

Yo'nalish: “Zardo'z aka, sizning matolaringizga qarab hayratda qoldim. Men ham sizdek sabrli bo'lishni xohlayman...”

3. “Hunar egasining yuragi qanday bo'ladi?”

Vazifa: O'quvchilar hunarli odamlar qanday bo'lishi kerakligi haqida yozma mulohaza bildiradilar.

Ko'nikma: Axloqiy-emotsional tahlil.

4. “Ertakdan saboq” (INSERT chizmalı yozuv)

Vazifa: Quyidagi shaklda yozma fikr bildirish:

- Men bilgan edim...
- Men yangidan o'rgandim...
- Men tushunmadim...
- Bu menga ta'sir qildi...



Ertak asosida ishlab chiqilgan vizual topshiriqlar

1. “Zardo‘z naqshi” (obrazli tasavvur)

Vazifa: O‘quvchi o‘ziga xos naqsh chizadi va uni “Yurak naqshi” yoki “Orzu naqshi” deb nomlaydi.

Maqsad: Ichki emotsiyalarni ramziy ifodalash.

2. “Zardo‘z yuragi” (simvolik ifoda)

Vazifa: Yurak shaklidagi shablon beriladi. O‘quvchilar yurak ichiga zardo‘z obraziga xos his-tuyg‘ularni yozadilar (masalan: sabr, faxr, tinchlik, ishonch, halollik).

3. “Kiyimga hikoya tik”

Vazifa: Oddiy kiyim yoki mato rasmi beriladi. O‘quvchi uni bezaydi va “Bu kiyim qanday odamga tegishli?” degan savolga javob beradi.

Ko‘rsatma: Ranglar orqali ruhiy holatni ifodalash (masalan: moviy – osoyishtalik, qizil – g‘ayrat, yashil – poklik).

4. “Zardo‘zga portret” (emotsional portret)

Vazifa: Zardo‘zning chehrasini tasvirlash (his-tuyg‘u, ko‘z ifodasi, tabassum bilan).

Qo‘shimcha: Surat ostiga uning bir gapi yoki hayotiy sabog‘ini yozish (masalan: “Sabr – hunarning yuragidir”).

4-jadval

Emotsional komponent	Yozma topshiriqlar	Vizual topshiriqlar
Emotsiyani anglash	“Men zardo‘z bo‘lganimda...” kundaligi	Portret chizish, rang tanlash
Empatiya	Maktub yozish	Naqsh yaratish orqali obraz bilan bog‘lanish
Emotsional ifoda	Insert jadvali, reflektiv savollar	Simvolik elementlar (yurak, kiyim, naqsh)
Axloqiy tahlil	“Hunar egasi qanday bo‘ladi?”	“Bu kimga mos kiyim?” savol-javobi

“Zardo‘z” ertagi orqali tashkil etilgan yozma va vizual topshiriqlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun chuqur tarbiyaviy va emotsional ahamiyatga ega. Ular orqali bolalar badiiy obrazlar bilan emotsional aloqa o‘rnatadi, shaxsiy tajriba bilan bog‘laydi va o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ayniqsa hunar, sabr, mehnat, halollik singari ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar bolalarning ichki ongiga chuqur singdiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu metodlar orqali pedagoglar va psixologlar bolaning o‘z hissiyotlarini anglash darajasini aniqlab, uning emotsional intellektini shakllantirishga qaratilgan qo‘shimcha yondashuvlarni belgilashlari mumkin.

Bu mezonlar yoshga mos psixologik metodikalar, intervyular, sinf ichidagi kuzatishlar va interaktiv dars faoliyatlari orqali aniqlanadi. Ushbu yondashuv orqali pedagoglar o‘quvchilarning emotsional intellekt darajasini tizimli ravishda baholashlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдураззаков М. Психологияда эмоционал интеллектнинг ривожланиши. – Тошкент: Психология нашриёти, 2022. – Б. 22–40.
2. Абдуллаев М. Таълимда инновацион технологиялар. – Тошкент: “Ижтимоий фикр” нашриёти, 2021. – Б. 78–83.
3. Адамович И.В. Характеристика уровней эмоционального интеллекта студентов-медиков. // Материалы конференции студентов и молодых ученых, посвященной памяти профессора М.В. Кораблева. – 2013.
4. Анисимович А.А. Эмоциональный интеллект как подход к поддержке осознанного выбора личностью своей будущей профессии. – 2021.
5. Goleman, D. Emotional Intelligence. – New York: Bantam Books, 1995. – pp. 56–78.
6. Hasanov A. Bolalarda emotsional intellektni shakllantirishda ota-onalarning ishtiroki. – Toshkent: Oliy ta’lim nashriyoti, 2022. – B. 45–58.
7. Nabiyeva A. O‘zbekistonda emotsional intellektni rivojlantirish usullari. – Toshkent: “O‘zbekiston ta’limi” nashriyoti, 2021. – B. 45–62.
8. Raxmonov A. O‘quv materiallari va o‘qitish usullarining emotsional rivojlanishga ta’siri. – Toshkent, 2019. – B. 56–61.
9. Tursunov M. Boshlang‘ich sinfda emotsional intellektni rivojlantirish: milliy va jahon tajribalari. – Toshkent: “Ta’lim va ijtimoiy tadqiqotlar” nashriyoti, 2022. – B. 78–93.
10. Durlak, J.A. & Weissberg, R.P. The Impact of Social and Emotional Learning: A Meta-Analysis. – Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning (CASEL), Chicago, 2015.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.